

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA O'QISH SAVODXONLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS USULLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7440708>

Ergasheva S.T.

Toshkent davlat pedagogika universiteti, "Boshlang'ich ta'linda ona tili va uni o'qitish metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi.



ELSEVIER



Received: 13-12-2022

Accepted: 15-12-2022

Published: 22-12-2022

Abstract: Maqlada boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini takomillashtirishning o'ziga xos usullari oshirish berilgan. Shuningdek, o'qish jarayonida yuzaga keladigan muammolar taddiq qilingan. Bundan tashqari aniqlangan muammolar bo'yicha xorijiy tajriba o'rganilgan. Tadqiqotlar natijasida o'qish savodxonligini rivojlantirish bo'yicha takliflar keltirilgan.

Keywords: o'qish savodxonligi, xalqaro baholash, PISA, TIMSS, PIRLS, tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, matn, nutq

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



Received: 13-12-2022

Accepted: 15-12-2022

Published: 22-12-2022

Abstract: В статье раскрыты конкретные способы совершенствования грамотности чтения у младших школьников. Также были исследованы проблемы, возникающие в процессе обучения. Кроме того, был изучен зарубежный опыт по выявленным проблемам. В результате исследований были высказаны предложения по развитию читательской грамотности

Keywords: грамотность чтения, международная оценка, PISA, TIMSS, PIRLS, анализ, синтез, сравнение, обобщение, текст, речь.

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



Received: 13-12-2022

Accepted: 15-12-2022

Published: 22-12-2022

Abstract: The article reveals specific ways to improve reading literacy in primary school students. Also, the problems that arise during the reading process have been investigated. In addition, foreign experience has been studied on the identified problems. As a result of the studies, proposals were made to develop reading literacy.

Keywords: reading literacy, International Assessment, PISA, TIMSS, PIRLS, analysis, synthesis, comparison, generalization, text, speech

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Jahon miqyosida bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish, matnni o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish, o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va kreativ fikrlash qobiliyatlarini yuzaga chiqarish borasida qator ilmiy izlanishlar, tajribalar o'tqazilmoqda. Jumladan, AQSH, Singapur, Rossiya, Polsha, Yaponiya va Koreya kabi dunyoning rivojlangan mamalakatlarida muktab ta'limi va ilmiy markazlari yetakchi o'rinn tutadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va matnni tushunishga o'rgatish murakkab pedagogik jarayon bo'lib, uni samarali tashkil etish boshlang'ich sinf

o'qituvchilaridan jarayonga maqsadli, tizimli yondashishni talab etadi. Binobarin, o'quvchilarni o'qish va matnni tushunishga o'rgatishda boshlang'ich sinf o'qituvchilari yetakchi o'rinni egallaydi. Shunday ekan boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarni turli xildagi matnlar ustida ishlashga o'rgatish zarur.

Dunyoda ta'lismi sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA, (o'quvchilarning ta'limga yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot), TIMSS (maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) kabi qator xalqaro baholash dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lismi sifatini yanada oshirishdagi asosiy mezon sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda. Tadqiqotning xalqaro lug'atiga ko'ra, "o'quvchi savodxonligi"-bu insonning hayotda o'zini to'liq namoyon qilishi va o'z maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan turli yozma tillarni tushunishi va mantiqiy ravishda anglash qobiliyatidir. Shu jihatdan kelib chiqqan holda, bugungi kunda dunyodagi rivojlanayotgan davlatlarning barchasi ma'lum bir sohada yutuqqa erishmoqchi bo'lsa, albatta, islohotni ta'lismi sohasidan boshlamoqda.

O'qish savodxonligi - tushunish va shaxs tomonidan qadrlanadigan hamda jamiyat tomonidan talab etiladigan barcha yozma til shakllaridan foydalana olish qobiliyatidir. O'quvchi turli shakldagi matnlardan mazmun hosil qiladi. Ular o'rganish, maktab va kundalik hayotda o'zlari kabi boshqa o'quvchilar jamoasiga qo'shilish va vaqtini samarali o'tkazish uchun o'qiydilar.

O'qish savodxonligi - shaxs o'zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topish maqsadiga erishishi yo'lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyatini hamdir.

O'qish jarayonining boshlanishi, o'rtasi va oxirida o'quvchi til ko'nikmalarining, kognitiv va metakognitiv strategiyalar hamda mazmun shakllantirishda birlamchi bilim va ko'nikmalar majmuasidan foydalananadi. Bundan tashqari, o'qish muhitini yuzaga keltiradigan sharoit o'quvchini o'qishga rag'batlantirish va qiziqtirish orqali matn mazmunini shakllantirishga yordamlashadi, ammo sharoit matn mazmunini tushunish imkonini bermaydigan muayyan talablarni yuzaga keltirishi ham mumkin. O'quvchi o'zini o'rab turgan dunyo va o'zi haqida tasavvurga ega bo'lishi uchun turli matnlarni o'qib o'rganishi mumkin. Har bir turdag'i matn o'quvchiga matnni talqin qilishiga imkon beruvchi sodda shakllar va qoidalardan iboratdir.

Sinf xonasi yoki maktab kutubxonasida yaratilgan ijtimoiy muhit boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qish jarayoni ularning o'qituvchilari va sinfdoshlari bilan bilim va tajriba almashishda dunyoqarashlarini kengaytirish imkoniyatini beradi. O'quvchilar o'z oila a'zolari va tengqurlari bilan o'qishdan olgan ma'lumotlar va

g'oyalar haqida suhbatlashar ekan, bu muhit chegarasi maktabdan tashqariga ham cho'ziladi.

Hozirgi vaqtida PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholash ikkita keng qamrovli maqsadga qaratilgan. O'qish savodxonligining maqsadi:

- Badiiy tajriba orttirish
- Axborotni olish va undan foydalanish

Badiiy kitoblarni o'qishda o'quvchilar voqealar, voqealari, obrazlar, o'qibatlar, personajlar, asar muhiti, hissiyotlar va g'oyalar bilan yo'g'rilgan matnni o'qiysi va matndan huzurlanadi. Adabiyotni tushunish va uni qadrlash uchun, har bir o'quvchi matnda (asarda) sodir bo'ladigan voqealar, hissiyotlar, tildan foydalanish san'ati hamda badiiy shakl haqida bilimni o'z hayolidan o'tkazishi kerak. Adabiyot yosh o'quvchilar uchun o'zlari hali boshidan kechirmagan holatlar va hissiyotlarni kashf etish imkoniyatini beradi. Badiiy asarda tasvirlangan voqealar, harakatlar va oqibatlar hayoliy bo'lsada, o'quvchiga ular real hayotda sodir bo'layotgandek tasavvur uyg'otadi va o'quvchiga ularni hayolan boshidan kechirish imkonini beradi. Matn (yoki badiiy asar) asarning hikoya qilib beruvchi yoki uning asosiy qahramonini kelajakda nima qilmoqchi ekanini bildirib turishi mumkin. Murakkabroq matnlar esa undanda ko'proq dunyoqarash yoki keskinliklarga ega bo'lishi mumkin. Matnning g'oyasi va undagi ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri yoki dialoglar hamda voqealar ko'rinishida tasvirlanadi. Qisqa hikoyalar yoki asarlar odatda voqealarni xronologik tartibda bayon qiladi yoki asar voqealariga qaytish yoki vaqtini avvalga qaytarish orqali bayon qiladi. PIRLS xalqaro dasturida qo'llanilgan badiiy matnlarning asosiy shakli badiiy janrga mansub bo'ladi. Ishtirokchi mamlakatlardagi o'quv dasturlari va madaniy jihatdan yuzaga keladigan farqlaridan kelib chiqib, PIRLS xalqaro dasturi doirasida ayrim badiiy matnlarni topshiriq sifatida tanlab olish qo'shimcha murakkablik tug'diradi. Misol uchun, sher'iy matnlarni tarjima qilish o'quvchilar uchun qiyinlik tug'dirgani bois, ularni topshiriqlarga qo'yilmaydi. Axborot beruvchi matnlar qator vazifalardan kelib chiqib yoziladi va o'qiladi. Binobarin, axborot beruvchi matnlarning asosiy vazifasi ma'lumot berishdan iborat bo'lgani sababli, odatda yozuvchilar o'zlari yoritmoqchi bo'lgan mavzuga turli maqsad bilan yondashadi. Ko'pgina axborot beruvchi matnlarda faktlar biror topshiriqni bajarish bosqichlari yoki biografik tafsilotlar kabi to'g'ridan-to'g'ri bayon etiladi. Shunga qaramasdan, ayrim axborot beruvchi matnlar subyektiv xususiyatga ega. Misol uchun, mualliflar izohlovchi mulohazalar, undash xususiyatli insholar yoki puxta o'ylab chiqilgan mulohazalar orqali izohlar va faktlarni o'quvchiga yetkazib berishi mumkin.

O'quvchi o'z dunyoqarashini shakllantirish uchun mazkur matnlarga tanqidiy yondashishi kerak. O'quvchi matnlarning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunishi uchun undagi ma'lumotlar boshqacha tartibda, ya'ni uning mazmuni, tuzilishi va shakli o'zgartirilgan holda taqdim etilishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari turli mavzularni qamrab olgan axborot beruvchi matnlarni, jumladan, ilmiy, tarixiy, jo'g'rofiy yoki ijtimoiy matnlarni o'qishlari mumkin. O'qishdan ko'zlangan har ikkala maqsad ham boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun birdek muhim bo'lgani bois, PIRLS dasturi har bir maqsadni baholovchi, bir xil miqdordagi materiallardan tashkil topadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish ularning dunyoqarashlarini o'stirish, so'z boyligini oshirish, nutq madaniyatini shakllantirish, mantiqiy fikrlashini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar har bir matn ustida ishlash jarayonida uni faqatgina o'qib qolmasdan, ma'nosini anglagan holda ijtimoiy hayot bilan bog'lasalarga samarali va kutilgan natijaga erishish mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 368 b.
2. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. –Toshkent: Kamalak, 2016. – 462 b.
3. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. 167-b.
4. U.N.Tashkenbayeva "O"quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan Axborotnama" Toshkent 2020 yil. 65 bet
5. U.N.Tashkenbayeva "O"quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan Axborotnama" Toshkent 2020 yil. 64 bet
6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi. –T., 2019. – 32 b.